



The Elucidation of the Science of Ma'ani in Ubaydulloh ibn Mas'ud's Work "Al-Vishoh"

Dilmurod ALMARDANOV¹

Oriental University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

Ubaydullah ibn Mas'ud,
Al-Vishoh,
Ma'ani science,
declarative sentence,
interrogative sentence,
rhetoric,
musnad,
musnad ilayh,
isnad,
truth,
falsehood.

ABSTRACT

This article examines the elucidation of the science of Ma'ani in Ubaydullah ibn Mas'ud's work Al-Vishoh. Defined as the discipline that studies the methods of aligning speech with context and purpose, Ma'ani science and its core concepts – musnad, musnad ilayh, isnad, and judgments pertaining to sentences – are analyzed. The scholar Sadr al-Shari'a divides Ma'ani science into five sections. While extensively addressing declarative sentences (khabariy jumla), the work does not delve into the discussion of interrogative sentences (inshoiy jumla). With the inclusion of Qur'anic verses, hadiths, and poetic examples, the text achieves precision and clarity in conveying meaning. The refutation of the Mu'tazilite school's views demonstrates the profound scholarly approach in distinguishing truth and falsehood. The article holds both theoretical and practical significance for further research in rhetoric and Ma'ani sciences.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp441-446>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ubaydulloh ibn Mas'udning "Al-Vishoh" asarida maoniy ilmining yoritilishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ubaydulloh ibn Mas'ud,
"Al-Vishoh",
ilmi maoniy,
xabariy jumla,
inshoiy jumla,
balog'at,
musnad,
musnad ilayh,

Mazkur maqolada Ubaydulloh ibn Mas'udning "Al-Vishoh" asarida ilmi maoniyning yoritilishi tahlil qilinadi. Maoniy ilmi gapning vaziyat va maqsadga muvofiq bo'lish usullarini o'rganuvchi fan sifatida ta'riflanib, bu ilmning asosiy tushunchalari – musnad, musnad ilayh, isnod va jumlagina oid hukmlar muhokama qilinadi. Alloma Sadrush Shari'a tomonidan maoniy ilmi besh bo'limga bo'lingan holda yoritilgan. Xabariy

¹ Teacher, Oriental University. E-mail: dilmurodansoriy@gmail.com

isnod,
rostlik,
yolg'onlik.

jumlalar haqida keng to'xtalgan bo'lsa-da, inshoiy jumalarga oid bahsga o'tmagan. Qur'on oyatlari, hadislar va she'riy namunalar asosida mazmunni anglashda aniqlik va tushunarlikka erishgan. Mo'tazilalar fikriga berilgan raddiya esa rostlik va yolg'onlik masalalarini aniqlashda ilmiy yondashuvning chuqurligini ko'rsatadi. Maqola balog'at ilmi va ilmi maoniy bo'yicha ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Освещение науки Маани в труде Убайдуллаха ибн Масуда «Аль-Вишах»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Убайдуллох ибн Масуд,
«Аль-Вишах»,
наука Маани,
повествовательное
предложение,
вопросительное
предложение,
риторика,
муснад,
муснад иляйх,
иснад,
истина,
ложь.

В данной статье рассматривается освещение науки Маани в труде Убайдуллоха ибн Масуда «Аль-Вишах». Маани определяется как наука, изучающая методы приведения речи в соответствие с ситуацией и целью. Анализируются ключевые концепции этой науки – муснад, муснад иляйх, иснад и суждения, связанные с предложением. Учёный Садр аш-Шариа делит науку Маани на пять разделов. Несмотря на подробное рассмотрение повествовательных предложений (хабарий джумла), в труде отсутствует обсуждение вопросительных предложений (иншой джумла). Использование аятов Корана, хадисов и поэтических примеров способствует достижению точности и ясности в передаче смысла. Опровержение взглядов мутазилитов демонстрирует глубокий научный подход к различению истины и лжи. Статья имеет теоретическое и практическое значение для дальнейших исследований в области риторики и науки Маани.

KIRISH

Maoniy (المعاني) ma'no (معنى) so'zining ko'plik shaklidir. Ma'no so'zi esa “qasd qilmoq” fe'lidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi.

Bayon ulamolarining istilohida ilmul maoniy – gapning muqtazoi hol, ya'ni gapirilayotgan vaziyatga mos bo'lish usullarini o'rganadigan ilmdir.

Balog'at fani ilmi ma'oni, ilmi bayon va ilmi badi' deb nomlanuvchi uch qismdan iborat bo'lib, ma'oni mana shu uch ilmdan biridir. Alloma sodrush shari'a Ubaydulloh ibn Mas'ud “al-Vishoh” asarida ilmi maoniyga quyidagicha ta'rif bergan:

“Ilmi maoniy – kalomni holat taqozo etgan ko'rinishda ifodalash tartibini o'rgatadigan ilmdir”.

Ilmi maoniyning asoschisi Shayx Abdulqohir Jurjoniy hisoblanadi. U o'zining “Asrorul balog'a” asarida maoniy ilmining poydevorini qo'ygan. Undan keyin Faxriddin Roziy, Abu Ya'qub Sakkokiy, Johiz, Zamaxshariy kabi bayon ulamolari maoniy ilmini va boshqa balog'at ilmlarini komiliga yetkazdilar.

Bu ilmning vazifasi – fikrni nutq orqali tinglovchiga yetkazishda vaziyat va maqsadga muvofiq shaklda gap tuzish va uning har bir bo'lagini bildirilishi lozim bo'lga ma'no e'tiboriga ko'ra joylashtirish usullari, ya'ni ifodalanmoqchi bo'lgan barcha ma'nolarni to'g'ri etkaza olish va uni tushunarli bo'lishiga erishish uchun kalom tuzish va uning bo'laklarini o'zaro bog'lash yo'llarini o'rgatadi.

Oddiy gap bilan xabar berish, maqtash, yomonlash, rasmiy xabarlar, oddiy gap bilan boshqa maqsadni ifodalash kabilar maoniy ilmi o'rganadigan bahslarga kiradi. Talab qilinadigan holatlarga gapni moslash uchun gapning, ishlatiladigan so'zlarning quyidagi holatlarini bilib olish foydali bo'ladi. Gap musnad (kesim) va musnad ilayhi (ega) dan tuzilishini va kesimning egaga nisbati berilishi isnod ekanligi nahv ilmi bahslaridan ma'lumdir. Gapning har bir bo'lagi u yoki bu bo'lakka suyanigan holda tuziladi. Masalan, gapning egasi kesimga suyanadi. Bunda fe'l musnad, egasi musnad ilayh bo'ladi. Isnod va boshqa holatlarning e'tibori bilan maoniy ilmi 8 qismga bo'linadi. Ba'zi ulamolar 6 qism, boshqalari 13, hattoki 18 qismlarga bo'lib maoniy ilmlarini yoritganlar. Homid Avniyning "al-Minhoj al-vozih", imom Taftazoniyning "Talxis al-Bayon", Ali Xobarmiy va Mustafo Aminlarning "al-Balog'a al-voziha" asarlarida ham mualliflar bu ilmni 8 qismda ifodalaganlar:

1. Xabariy jumla.
2. Inshoiy jumla.
3. Musnad ilayhning holatlari: uni zikr qilish va hazf qilish lozim bo'lgan o'rinlar, keltirish va keltirmaslik ixtiyoriy bo'lgan holatlar haqida.
4. Musnadning holatlari: uni zikr qilish lozim va hazf qilish lozim bo'lgan o'rinlar, keltirish va keltirmaslik ixtiyoriy bo'lgan holatlar haqida.
5. Fe'lning mutaalliqarlari – zikr qilish yoki qilmaslikning lozim bo'lgan bo'lgan o'rinlari va boshqa holatlar haqida.
6. Qasr, ya'ni biror narsani biror narsaga xoslash.
7. Fasl hamda vasl hukmlari.
8. Muxotobning holatidan kelib chiqib gapni iyjoz qilish, ya'ni qisqa-lo'nda qilish va unga tegishli hukmlar; itnob gapni sharhlab, cho'zib keltirish va unga tegishli hukmlar; va musovot kalom bilan ma'noni o'zaro teng keltirish.

Alloma sodrush shari'a Ubaydulloh ibn Mas'ud "Al-vishoh" asarida ilmi maoniyni quyidagi 5 qismga bo'ladi:

1. Musnad ilayhi (ega) haqida. Zikr, hazf, ma'rifa va nakira bo'lish holatlari haqida so'z yuritiladi.
2. Musnad (kesim) haqida. Zikr, hazf, ma'rifa va nakira bo'lish holatlari haqida so'z yuritiladi.
3. Isnod haqida. Ta'kid, qasr (hasr), ya'ni cheklash, xoslash haqida.
4. Musnad va musnad ilayhining joylashuvi. Taqdim, ta'xir (gap bo'laklarini oldin va keyin keltirish) haqida so'z yuritiladi.
5. Jumlag tegishli hukmlar. Fasl, vasl, ijoz, itnob, musovot haqida so'z yuritiladi.

Ajablanarlisi, negadir inshoiy jumlar haqida alloma so'z yuritmagan. Maoniy ilmiga kirishayotib, "ومعظم ابحائه في الخبر" "Va uning asosiy bahsi xabariy jumladir" deb xabariy jumalarga urg'u bergan. Alloma xabariy jumlag quyidagicha ta'rif beradi:

وهو قول يقتضي بصريحه نسبة شيء إلى شيء واحتمال الصدق والكذب لازم له

"Xabariy jumla – bu to'g'ridan-to'g'ri bir narsaning ikkinchi narsaga nisbati berilishidir. Rost yoki yolg'on ehtimoli bo'lishi esa, uning shartidir".

Ko'pgina bayon ulamolari xabariy jumlag rost yoki yolg'on bo'lishi mumkin bo'lgan jumladir deb ta'rif berishadi. Jumladan "Javohirul-balog'a" asarida quyidagicha ta'rif berilgan:

“Xabariy jumla – bu o‘z zotida rost va yolg‘on ehtimoli bor bo‘lgan jumladir”.

Xabariy jumlaning asosiy rukni rost va yolg‘on bo‘la olishidir. Shuning uchun muallif bu haqda ham to‘xtalib o‘tgan.

Rost va yolg‘on xabarlar. Balog‘at olimlari oddiy xabar gapni sidq-rost va kizb-yolg‘on xabarga ajratganlar. Rost xabar – mazmuni voqe‘likka muvofiq keladigan kalomdir. Yolg‘on xabar – mazmuni voqe‘likka muvofiq kelmaydigan kalomdir.

Jumla rost va yolg‘on bo‘lishi ba‘zan xabar beruvchiga yoki voqe‘likka bog‘liq bo‘ladi. Zero, ba‘zi xabarlar haqida yolg‘on umuman ehtimol qilinmaydi. Ular faqat rost bo‘ladi, yolg‘on bo‘lishi mumkin emas. Ba‘zilari haqida esa, yolg‘ondan boshqasi ehtimol qilinmaydi.

Birinchisiga misol: Alloh taolo va payg‘ambarlarning xabarlar hamda maqol va isboti talab qilinmaydigan ibora – oksioma, teorema kabilar:

قل هو الله أحد

Ayting, u Alloh bittadir! (Ixlos surasi, 1-oyat).

إنما الأعمال بالنيات

Amallarning savobi niyatga qarab bo‘lur! (Hadis).

Yetti o‘lchab bir kes. (o‘zbek xal maqoli).

الأرض تحتنا والسماء فوقنا

Yer tagimizda, osmon ustimizdadir.

Yuqoridagi kabi gaplar isboti talab qilinmaydigan rost xabarlar xabarlar hisoblanadi.

Ikkinchisiga misol: Musaylama Kazzobning payg‘ambarlik da‘vo qilib aytgan gaplari hamda الجهل نافع (Bilimsizlik manfaatlidir), العلم غير نافع (Ilm manfaatsizdir) kabi rostligini umuman ehtimol qilinmaydigan gaplarni aytish mumkin. Yuqorida keltirilgan misollardagi so‘zlarni rost yoki yolg‘on deb ehtimol qilishda xabariy jumlaning zoti, ya‘ni o‘ziga e‘tibor berilishi zarurdir. Uning xabar beruvchisi yoki voqe‘likka to‘g‘ri kelishi-kelmasligiga e‘tibor berilmaydi. Shuning uchun xabarning ta‘rifida “Javohiru-l-balog‘a” muallifi Sayyid Ahmad Hoshimiy “o‘z zotida” degan so‘zni alohida zikr qilgan.

Xabariy jumlaning ikki nisbati, ya‘ni ikki jihati bo‘lib, rost yoki yolg‘onlik shundan belgilanadi. Ular quyidagilar:

– Kalomdan anglangan nisbat. Bu turni kalomiy nisbat deyiladi.

– Tashqari-voqe‘likdan anglangan nisbat. Buni xorijiy yoki voqe‘iy nisbat deyiladi.

مَحْمُودٌ مُسَافِرٌ Mahmud musofirdir. Bu xabariy jumla Mahmud haqiqatda musofir ekanini anglatmoqda. Bu kalomiy nisbat yo‘li bilan anglandi. Sobitlik esa, tashqaridan, voqe‘likdan xorijiy yoki voqe‘iy nisbat yo‘li bilan anglanyapti. Kalomning rost va yolg‘onligi mana shu ikki nisbat atrofida aylanadi.

Gap mazkur ikki nisbatga muvofiq kelgan holatda u rost-sidq xabar bo‘ladi. Yuqoridagi misolda مَحْمُودٌ مُسَافِرٌ Mahmud musofirdir, deyildi. Demak, Mahmud haqiqatda ham safarda bo‘lgan holatda bu xabar rost xabar bo‘ladi.

Ammo mazkur ikki nisbat مَحْمُودٌ مُسَافِرٌ deganda, bir-biriga muvofiq kelmagan holatda, ya‘ni Mahmud voqe‘likda, haqiqatan ham musofir bo‘lmagan holatda bu xabar yolg‘on xabar bo‘ladi.

Xabardan uni rost yoki yolg'onligi ehtimol qilinadi, undan boshqa uchinchi holat yo'qdir. Bunga ko'pchilik balog'at olimlari ittifoq qilganlar.

Xabar – fe'liy va ismiy jumladan iborat bo'ladi. Fe'liy jumla – biror hodisa muayyan zamonda bo'lganini muxtasar shaklda ifodalaydigan jumla bo'lib, u fe'l va foil yoki noibi foildan tashkil topadi. Agar jumladagi fe'l muzoriy shaklida, ya'ni hozirgi-kelasi zamonda ish-harakat bo'layotganini bildirishi, jumlada bardavomlikni ifodalaydigan omillar mavjud bo'lsa, mazkur hodisa doimiy ekani anglanadi. Masalan, bayt:

أَوْ كَلَّمَا وَرَدَتْ عُكَّازُ قَبِيلَةٍ بَعَثُوا إِلَيَّ عَرِيفَهُمْ يَتَوَسَّمُ

Har vaqt Ukkoz bozori qaynaganda, qabila ulug'lari ko'rishganda,

Yuborib shogirdlarin huzurimga, ta'lim olardilar ko'rishganda.

Mazkur baytda muzoriy shaklida يَتَوَسَّمُ fe'li va bardavomlikni ifodalayotgan qarina (omil) كَلَّمَا lafzi qatnashdi.

Ismiy jumla – ikki va undan ziyod ismlardan tuziladi. Musnad ilayhning (mubtado yoki ega) musnadi (xabar yoki kesim) sobitligini anglatadi. Ko'pincha u mubtado va xabardan iborat jumla bo'ladi. Mubtado boshlanmish va xabar esa uhaqida xabar, ma'lumot beruvchi ma'nosida ishlatiladi. Masalan: الْأَرْضُ مُتَحَرِّكَةٌ Yer harakatlanuvchidir.

Agar bunday jumlaning xabarida fe'l bo'lmasa va bardavomlikni ifodalaydigan omillar bo'lsa, ismiy jumla doimiylikni anglatadi. Misol: وَإِنَّكَ لَعَلَى خُلُقٍ عَظِيمٍ "Albatta, siz buyuk xulq uzradirsiz!".

Bordiyu, ismiy jumlaning xabari fe'l bo'lsa, jumla yangi ma'noni anglatadi. Masalan: الْحَرَكَةُ نُفُوزِي الْعَضَلَاتِ. Ya'ni, har qachon harakat bo'lsa, mushaklar quvvatlanadi. Shuningdek, ismiy jumlaning xabari fe'liy jumla bo'lsa ham yangi ma'noni anglatadi.

Xabarning turlari

Xabar beruvchining xabardan maqsadi muxotabga kalomni ifodalab berish bo'lsa, uni cho'zib yuborishdan saqlanib, gapini qisqa qilishi lozim. Mutakallim muxotabga nisbatan bemorga tabib singari bo'lishi kerak. Ya'ni, tabib bemorga qanday muolaja va qaysi malhamlar foyda berishini bilishi kerak.

Muallifning mavzuga yondashuvi juda teran va chuqur bo'lib, har bir masalani tub mohiyati anglab yetilishi uchun o'ta daqiqlik bilan nozik nuqtasigacha tushuntirgan. Masalan, rost va yolg'on (sidq va kizb) masalalarida "والصدق مطابقة الواقع" – "Rostlik bu voqe'likka moslikdir" deydi. So'ng mo'tazila toifasiga raddiya berib, ularning adashgan joyini isbotlab beradi. Ular rostlik deb, aytilgan gapning voqe'likka muvofiq bo'lishini emas, balki so'zlovchining e'tiqodiga to'g'ri kelishini tushunishadi. Masalan, birov "Zayd keldi" desa, u rost bo'lishi uchun Zayd voqe'likda, ya'ni haqiqatdan ham kelgan bo'lishi kerak. So'zlovchi yolg'onni qasd qilmasdan, chindan ham Zaydni kelgan deb o'ylab gapirgan bo'lsa-da, agar Zayd kelmagan bo'lsa balog'at istilohida bu kalom yolg'on deb qaraladi. Mo'tazilalar esa, bu gap voqe'likka to'g'ri kelmasa ham so'zlovchining nazdida rost bo'lgani uchun rost deb e'tibor qilinadi, deyishadi. Ularning nazdida birov Zaydning kelmaganini bilib turib, ataylab Zayd keldi desa, garchi u voqe'likka to'g'ri kelmasa ham rost hisoblanadi. Mo'tazilalar bu da'vosiga Munofiqun surasidagi "إِنَّ الْمُنَافِقِينَ لَكَاذِبُونَ" "Albatta munofiqlar yolg'onchidirlar" oyatini dalil qilishadi. Alloh taolo bu oyatda munofiqlarni "نشهد إنك لرسول الله" "Guvohlik beramizki, siz shak-shubhasiz, Allohning payg'ambaridirsiz" degan gapi uchun, vaholanki, voqe'likda Rosululloh sollolohu alayhi va sallam rostdan ham haq payg'ambar bo'lsada, yolg'onchi deb atamoqda. Demak rostlik bu voqe'likka muvofqlik emas, balki so'zlovchi e'tiqodiga moslikdir. Alloma Sodrush

Shari'a mo'tazilalarga raddiya o'laroq shunday deydi: "Agar ular rostlik va yolg'on borasida o'zlarining qarashlarini quvvatlash uchun Munofiqun surasining birinchi oyatini dalil qilishsa, aytamizki, ularning yolg'onchiga chiqarilishi aytgan gaplari uchun emas, guvohliklari uchundir."

XULOSA

Ubaydulloh ibn Mas'ud "al-Vishoh" asarida maoniy bo'limini yoritishda o'zidan oldingi ulamolar yo'lidan boradi. Faqat inshoiy jumlar haqida so'z ochmaydi. Alloma maoniy 5 bo'limga bo'lib o'rganadi. Misollar keltirishda Qur'on oyatlari va she'rlardan foydalanadi. Uslub jihatdan fiqh bo'yicha dunyoga mashhur "Muxtasarul-viqoya" asariga o'xshash qisqa va muxtasar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulqodir Jurjoniy. *Asror ul-Balog'a*. : XV asr.
2. Al-Mardonov, Dilmurod E. *Al-Vishoh: Maoniy ilmi izohida*. Sharq universiteti, [2020].
3. Ahmad Hoshimiy, S. *Javohir ul-Balog'a*. XVI asr.
4. Avniy, H. *Al-Minhaj al-Vozih*.
5. Taftazoniy, S. *Talkhis al-Bayan*.
6. Zamaxshariy, A. *Al-Kashshof*. 1130.
7. Xaubarmiy, A. va Amin, M. *Al-Balog'a al-Vozihah*. : XX asr.